

## **ALISHER NAVOIY G‘AZALLARIDA BADIY TASVIR VOSITALARI: SO‘Z SAN’ATI MO‘JIZALARI**

***Mohizarbegim ERGASHEVA***

*TDSHU, arab filologiyasi yo‘nalishi  
2-bosqich (kunduzgi) arab-ingliz 1-guruhan talabasi*

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada Alisher Navoiy g‘azallaridagi badiiy san’atlar — tashbeh, isti’ora, tajnis, tazod, kinoya, mubolag‘a kabi so‘z san’ati vositalarining qo‘llanilishi tahlil etiladi. Maqolada ushbu san’atlar orqali g‘azallarning ma’no teranligi va ruhiy go‘zalligi ochib beriladi. Misollar asosida Navoiy so‘zining sehri, ifoda uslubi va badiiy mulohazalarining o‘ziga xosligi ko‘rsatib o‘tiladi.

**Abstract:** This article analyzes the use of such artistic means of speech in Alisher Navoi’s ghazals as metaphor, allegory, irony, and hyperbole. The article reveals the depth of meaning and spiritual beauty of ghazals through these arts. The magic of Navoi’s words, his style of expression, and the uniqueness of his artistic reflections are demonstrated on the basis of examples.

**Kalit so‘zlar:** Alisher Navoiy, g‘azal, badiiy san’atlar, tashbeh, isti’ora, tajnis, tazod, kinoya, mubolag‘a, so‘z san’ati, mumtoz adabiyot, Navoiy ijodi, she’riyat, badiiy ifoda.

**Key words:** Alisher Navoi, ghazal, artistic arts, metaphor, simile, allegory, irony, hyperbole, word art, classical literature, Navoi’s work, poetry, artistic expression.

Alisher Navoiy — o‘zbek mumtoz adabiyotining yirik vakili bo‘lib, uning ijodi turkiy she’riyat taraqqiyotida muhim o‘rin tutadi. Shoir g‘azal janrini badiiy yetuklik, ma’naviy chuqurlik va so‘z san’ati orqali yangi bosqichga olib chiqqan. Navoiy g‘azallari o‘zbek adabiyotida ruhiy teranlik va badiiy mahorat timsolidir. So‘z san’ati va badiiy san’atlar Navoiy g‘azallarining go‘zalligini ta’minlovchi asosiy badiiy vositalardandir. Tashbeh, isti’ora, tajnis, tazod kabi san’atlar orqali shoir so‘zga ruh, mazmunga esa teranlik bag‘ishlaydi. Ular g‘azalni nafis, ta’sirchan va mazmunan boy qiladi.

Badiiy san’at — adabiy asarda so‘z va ifoda vositalaridan estetik maqsadda foydalanish san’atidir. U matnga badiiylik, obrazlilik va ta’sirchanlik bag‘ishlaydi. Mumtoz she’riyatda badiiy san’atlar muhim o‘rin egallab, ular orqali shoir fikrini nafis tarzda yetkazadi. Bunday san’at turlariga tashbeh (o‘xshatish), isti’ora (majoz), tajnis (so‘z o‘yini), tazod (qarama-qarshilik), kinoya, mubolag‘a, iqtibos, talmeh kabi vositalar kiradi. Bu san’atlar g‘azalni boyitib, uni o‘quvchi qalbiga chuqurroq singdirishga xizmat qiladi. Badiiy san’atlar son jihatidan nihoyatda ko‘p va xilma-

xildir. Jumladan, metafora, metonimiya, allegoriya, simvol, sinekdoxa, istiora, perefraza, ironiya kabi umumiylar bilan bir qatorda, mumtoz adabiyotimizda o‘ziga xos yuzlab ko‘rinishlar ham mavjud. Ular orasida tashbeh, isti’ora, iyhom, tanosib, tazod, talmih, tazmin, husni ta’lil, irsolli masal, tajnis, tamsil, lajf va nashr, tardu aks, taqsim, tafriq kabi san’atlarni alohida ta’kidlash mumkin. Ushbu san’atlarning nazariy asoslari va turlari bo‘yicha Vahob Rahmonovning “She’riy san’atlar” (1962), “She’r san’atlari” (2001), Atoulloh Husayniyning “Badoy’u-s-sanoyi” (1981), Shayx Ahmad Taroziyoning “Funun al-balag‘a” (1996), Anvar Hojiahmedovning “Mumtoz badiiyat malohati” (1999), “She’r san’atlarini bilasizmi?” (2001) va To‘xta Boboyevning “Adabiyotshunoslik asoslari” (2002) kabi manbalarda bat afsil yoritilgan.<sup>1</sup>

Qadimda bu ilm turli xalqlarda turlicha nomlangan: arablarda — Balog‘at ilmi, fors-tojik adabiyotida — Ilmi sanoyi’, bizda esa — San’at ilmi deyilgan. Bu ilm uch asosiy qismdan tashkil topadi:

1. *Lafziy san’atlar* — so‘zlarning tovushi, ohangi, shakli asosida hosil bo‘lgan badiiy san’atlar. Uning **tardi aks, tasdir, takrir, tadrij, tajziya, tashtir, tasbe, tarse’, tadvir, ishtiyoq, raddi matla’, mukarrar, aks, saj’, qaytariq, muvozina, muzoraa, iltizom, nido, radif, hojib** kabi ko‘rinishlari bo‘lib, «Lafziy go‘zalliklarning asosi uldirkim, alfozki ma’nog‘a tobe’ qilg‘aylar» (Atoulloh Husayniy), ya’ni shakliy bamolik mazmun go‘zalligining voqe bo‘lishiga xizmat qiladilar.<sup>2</sup>

2. *Ma’naviy san’atlar* — mazmun va ma’no ustiga qurilgan san’atlar. Ushbu san’atlar asarda chuqur g‘oya, falsafiy mazmun va ruhiy teranlik yaratishda muhim rol o‘ynaydi. Ma’naviy san’atlarga iyhom, ittifoq, tadbix, faxriya, taqsir, irsolli masal, tashxis, intoq, tazod, husni ta’lil, iltifot, talmih, ruju’, tazmin, muqobala, ta’riz, tanosib, tajnis, laff va nashr kabi o‘nlab shakllar kiradi.

3. *Lafziy-u ma’naviy san’atlar* — so‘zning ham tovush, ham ma’no jihatlari bilan bog’liq badiiy san’atlardir. Uning tashbih, istiora, tanosub, tamsil, ta’riz, kinoya, tajnis kabi rang-barang ko‘rinishlari bor.

Bu san’at turlarining har biri o‘ziga xos ifoda imkoniyatiga ega bo‘lib, she’riy nutqning obrazli, ta’sirchan va estetik jihatdan mukammal bo‘lishiga xizmat qiladi va ushbu san’atlar Navoiy ijodining ham estetik, ham falsafiy qatlamini tashkil qiladi.

Navoiy g‘azallarida tashbeh va isti’oralar — so‘z san’atining eng muhim vositalaridan bo‘lib, ular orqali shoir go‘zallik, ishq va ma’naviy olam manzaralarini badiiy tasvir etadi. Tashbeh (o‘xshatish) orqali u sevgilining qiyofasini oyga, gulga, quyoshga qiyoslab, obrazlarni yorqinlashtiradi. Isti’ora (majoziy ifoda) esa narsani

<sup>1</sup> Hotam Umurov. Adabiyotshunoslik nazariyasi. Darslik. T., - 2004.

<sup>2</sup> Hotam Umurov. Adabiyotshunoslik nazariyasi. Darslik. T., - 2004.

bevosita o‘z nomi bilan emas, boshqa narsa orqali anglatib, g‘azalga chuqurlik va badiiy zavq baxsh etadi. Navoiy ushbu san’atlar yordamida ichki kechinmalarini, ruhiy olamni o‘quvchi tasavvurida jonli va ta’sirli qilib gavdalantiradi. Xususan, quyidagi baytda tashbeh va boshqa san’atlar mavud:

Orzuyi vaslidin ranjur erur munlug‘ ko‘ngul,  
Qut uchun tazvir ila bemor bo‘lg‘ondek gado.

Mazmuni: Sening vasling umidida bechora ko‘ngul kasal bo‘ldu , go‘yoki tilanchi qut (yemish) toppish maqsadida o‘zini bemorga solgani kabi,<sup>3</sup>

Navoiy asarlaridagi go‘zallik, ishq va ma’naviy olam tasvirlarida o‘xshatishlar (metaforalar, taqqoslashlar) o‘ziga xos estetik va ma’naviy qatlamlarni ochadi. O‘xshatishlar, ayniqsa, g‘azallarda, qahramonning ichki holatini, qalb kechinmalarini va olamga bo‘lgan qarashlarini aniq ifodalash uchun ishlataladi. Bu usul orqali shoir o‘z tuyg‘ularini, tashvishlarini va sevgisini yanada chuqurroq va rang-barang qilib tasvirlash imkoniyatiga ega bo‘ladi. Go‘zallikni , odatda, quyosh, yulduzlar yoki bahor kabi tabiiy unsurlarga o‘xshatishadi. Masalan:

«Yuzingni ko‘rdim – quyoshning nuridan ham ko‘proq nur taratar» – Bu yerda yuz go‘zalligi quyoshning nuriga o‘xshatilgan, go‘zallikning kuchi va yorqinligi ta’riflanadi. Ishqni tasvirlashda ham o‘xshatishlar muhim rol o‘ynaydi. Ishq o‘rta asrlarda ko‘pincha olov yoki yong‘in bilan taqqoslanadi: «Sevgi yuragimni alangaga aylantirdi» – Bu misolda sevgi olovga o‘xshatilib, uning qanchalik kuchli va yo‘qotuvchi ta’sirini ifodalaydi.

Navoiy asarlarida, xususan, tuyuqlarida yana bir janr – tajnisning o‘ziga xos uyg‘unligini uchratish mumkin. Quyidagi tuyuqda tajnis (jinos ham deyiladi) san’atidan foydalanilgan:

Yo rab, ul shahd-u shakar, yo labdurur,  
Yo magar shahdu shakar yolabdurur.  
Jonima payvasta novak otqali  
G`amza o`qin qoshig`a yolabdurur.

Yuqoridagi tuyuqning 1-misrasida „yo labdurur“ qismi u, ya’ni yorning labi shirinligidan shakarga o‘xshatilganligi hisobiga „yoki shakar, yoki labdir“ ma’nosida kelgan. 2-misrada esa „yalamoq“ ma’nosida va nihoyat, 4-misrada „yo’llamoq, jo‘natmoq“ ma’nosida qo‘llanilgan.

Navoiyning „Ko‘zung ne balo qaro bo‘lubtur...“ radifli g‘azali balo va qaro so‘zlari, dard va davo, fido va jon, begona va oshno so‘zlari almashib kelib *tardi aks* san’atini hosil qilgan. Va bu g‘azal butunlay shu san’at ustiga qurilgan deyiladi:

Ko‘zing ne balo qaro bo‘lubtur, Kim, jonga qaro balo bo‘lubtur.

<sup>3</sup> Mardonova X.A. Navoiy g‘azallarida ma’naviy san’atlarning qo‘lanishi  
<https://moluch.ru/archive/353/79122/>

Majmu'i davoni dard qildi, Dardingki, manga davo bo'lubtur.  
Ishq ichra oning fidosi yuz jon, Har jonki, sanga fido bo'lubtur.  
Begona bo'lubtur oshnodyn, Begonaga oshno bo'lubtur.  
To qildi yuzung havosi jonim, Yuz sari anga havo bo'lubtur.  
Boqiy topar ulki, bo'ldi foni, Rahravg'a baqo fano bo'lubtur.  
To tuzdi Navoiy oyati ishq, Ishq ahli aro navo bo'lubtur.

Shuningdek, g'azalda yuz so'zлari ham o'zaro tajnis san'atini vujudga keltirgan va boqiy, foni; baqo, fano so'zлari tazod, ya'ni zid ma'noli so'zлarni qo'llash san'atidir.

„Ey sabo...“ g'azalida esa shoир saboga murojaat qilgan va bu adabiyotda nido san'atini hosil qiladi. Shu g'azalda yorni „sarvi xiromon, gulbargi xandon“ deya uni sarv daraxti va ochilib turgan gulga o'xshatilgan. Bu esa she'riyatda istiora deb yuriladi.

„Kecha kelgumdur debon ul sarvi gulru kelmadi, Ko'zlarimg'a kecha tong otquncha uyqu kelmadi.“ baytida shoирga visol va'dasini bergen yor va'dasini buzadi – uchrashuvga kelmaydi. Natijada, bundan shoир ezilib, tonggacha ko'ziga uyqu kelmadi deydi. Aslida, tonggacha hech ko'zga uyqu kelmasligi bo'rttirib tasvirlangan – mubolag'adir. Yoki “Har qil gulkim, yuzing shavqida olib isladim, Yetkach ohim shu'lasi, oni sorig' gul ayladim.“ Baytda keltirilishicha, oshiq o'z yorini sog'inib, gulni olib hidlaganda oshiqning ohidan qizil gul sariq gulga aylanibdi. Bu hayotda yuz berishi umuman mumkin bo'limgan holatdir. Navoiy ijodida mahorat bilan qo'llangan bu san'at ham, albatta, mubolag'adir.

Xulosa: Navoiy g'azallarida badiiy san'atlar so'z sehri va ma'naviy teranlikni ochib beradi. Shoирning san'atkor sifatidagi mahorati uning har bir misrasida namoyon bo'ladi. Uning merosi nafaqat estetik zavq bag'ishlaydi, balki badiiy tafakkurni tarbiyalaydi va chuqr o'rganishga undaydi. Uning har bir asarida kamida bitta ajoyib she'riy san'at namunasini uchraydi. Navoiy bu jihatdan beqiyos shoirdir.

#### **Foydalilanigan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Hotam Umurov. Adabiyotshunoslik nazariyasi. Darslik. T., - 2004.
2. Mardonova X.A. Navoiy g'azallarida ma'naviy san'atlarning qo'lanishi  
<https://moluch.ru/archive/353/79122/>